

Pedagogika sohasida qo‘llanilayotgan axborot texnologiyalari

Guliston davlat pedagogika instituti pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi Mustafoqulova Aziza Urazboy qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika sohasida axborot texnologiyalari va ularning qo‘llanilishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Axborot texnologiyalari, multimedia, kompyuter, ta'lim tizimi, an'anaviy ta'lim printer.

Kirish. Hozirgi kunda talim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundankunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Ta'lim tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda mavjud gipermedia, videotasvir, grafika, animatsiya, ovoz va boshqa veb-dasturlaridan foydalanish katta samara bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi “Ta'lim to‘g‘risidagi qonunning 26 moddasida hamda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida o‘qitish jarayoniga ilg‘or zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng ko‘lamda tadbiiq etish barcha turdagi ta'lim muassasalari oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta'kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Pedagog olim A. Xoliqov “Pedagogik mahorat” qo‘llanmasida oquv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari- ni qollash ta'lim metodlaring samaradorligini oshirishga o‘qituvchilar mehnat faoliyatining o‘zgarishiga, ularning pedagogik mahoratini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o‘zgarishiga samarali ta'sir etishini aytib otgan Abdullayev Farhod Donaqul o‘g‘li o‘zining” Pedagogik sohada axborot texnologiyasining qo‘llanilishi” maqolasida:” Ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hodisalar va jarayonlarni kompyuterda modellashtirishdir. Kompyuter modellari an'anaviy darsning tarkibiga hamohang bo‘lishi va o‘qituvchiga kompyuter ekranida, ko‘pgina effektlarni

namoyish etishga, o‘quvchilarning yangi, noan’anaviy o‘quv faoliyatini tashkil etishga yordam beradi” degan fikrlarni ilgari surgan. Multimediali o‘quv kurslarini butun dunyo kompyuter tarmog‘iga joylashtirilishi, ulardan o‘quv jarayoni foydalanishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojoat qilish, o‘quvchilarga axborotlarni topish, izlash va o‘rganish faoliyatini shakllantirish va kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi. Multimedia texnologiyalarida an’anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko‘rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko‘rinishida ifodalanilishi o‘quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo‘lishga o‘rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi. Isoqova Adiba Shamsiddin qizining Axborot texnologiyalaridan ta’lim jarayonini shakllantirishda foydalanish nomli maqolasida “ta’lim tizimida multimedia texnologiyalari nazariy, amaliy, ko‘rgazmali, ma’lumotli va nazorat qismlarini birlashtirish yo‘li bilan o‘quvchilarga ijobiy va samarali ta’sir etuvchi vosita hisoblanadi,” deb ta’kidlagan.

Muhokama

Butun dunyoda axborot texnologiyalari rivojlangan. Shu jumladan bizning mamlakatimizda ham. Talim sohasida ham axborot texnologiyalari qo‘llanilmoqda. Afsuski bazi kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Bu muammolardan biri mamlakatimizning chekka hududlarida seziladi. Ularda axborot texnologiyalari vositalari yaxshi jihozlanmaganligi, kompyuterning yetishmasligi televizorlarning yo‘qligi, printerlarning yetishmasligi oquvchilarga video rolik materiallarning qo‘llanilma olmasligiga oquvchilarning zamon bilan hamnafas bo‘la olmasligiga sabab bo‘lmoqda. Bu pedagoglarning eng katta muammolaridan biri hisoblanadi. Pedagoglarga berilgan printerlarning katta va qo‘polligi uni olib o‘tishga va harakatlantirishga noquaylik tu‘g‘dirmoqda. Oqituvchilarning hujjat ishlari ko‘pligi ularning o‘z faoliyati bilan shug‘ullanishiga darsga tayyorgarligiga to‘sqinlik qilmoqda va vaqtini olmoqda. Agar bu muammo hal etilsa, pedagoglarning yangi axborot texnologiyalari bilan tanishishga va ularni amaliyotda qo‘llashga vaqti koproq boladi

Natija

Mamlakatimizdagi pedagoglar koproq an’anaviy usuldan emas balki noan’anaviy usuldan va uning metodlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalansa oquvchining dars jarayoniga qiziqishi oshadi. Hozirgi zamon axborot texnologiyalari

rivojlangan zamonda bizning mamlakatimizda talim tizimiga ozgina etibor qaratgan holda tali tizimida zamon texnologiyalaridan foydalanishimiz kerak. Misol uchun dars vaqtida oquvchilar elektron kitoblardan foydalanishi kerak ya'ni planshetlardan. Ular o'quvchilar uchun anchagin qulay Planshetlar orqali o'quvchilar darsni ham amaliy ham nazariy bilimlarni oladi. Planshetning kitobdan ustun tomonlaridan biri shundaki, ixchamligida hamda malumotlarning tez topilishi osonligida. O'zlashtirilayotgan bilimni planshet orqali ko'rgazmali materiallar natijasida darsni tushunish oson bo'ladi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ta'lim sohasida o'zgarishlar bo'lmoqda. Pedagogika sohasida axborot texnologiyalarini qo'llashning o'ziga xos afzalliklari mavjuddir. Axborot texnologiyalari orqali o'qituvchilar mavzuni ko'rgazmalikarзда tushuntirishi natijasida o'quvchilarning bilim olishi mukammal bo'ladi, yaxshilanadi hamda dunyoqarashi kengayadi va bu ta'lim tizimi sifatining oshishiga sababchi boladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Özbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risidagi” qonuni
- A. Xoliqov “pedagogik mahorat” Toshkent. 2010.
2. U.Begimqulov “Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped.fanlari don't.ilmiy dar uchun diss.
3. M.Pirmuhammedova Pedagogik mahorat asoslari-T.: 2010.

**Research Science and
Innovation House**